

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

TOSHKENT VILOYATI HUDUDIDAGI SALOR KANALIGA KIMYOVİY
MODDALARNING TA'SIRI

Yo'ldasheva Charos Abbasovna

assistant

"TIQXMMI" Milliy Tadqiqot Universiteti

Annotatsiya. Hozirgi kunda Salor kanali suvining og'ir metallar, azot birikmalarini va organik moddalar bilan ifloslanganligi hamda cho'kindilarning og'ir metallar bilan ifloslanganlik darajasi an'anaviy va ekspres metodlarda zamonaviy texnologiyalar yordamida o'rGANildi. Ishining Amaliy ahamiyati tadqiqotlarning natijalariga ko'ra Salor kanali suvi va cho'kindilarini organik ifloslantiruvchilar bilan ifloslanish darajasi baholandi va sanoat markazlarining kanalning ifloslantiruvchi moddalar bilan ifloslanishidagi roli haqida xulosalar berildi.

Hozirgi kunda suv resurslarini ifloslanishi va buzilishi, bu suvlarda xar-xil organik noorganik, mexanik bakterialogik va boshqa moddalar to'planib, uning rangi, tiniqligi, hidi mazasi, organik va mineral qo'shimchalar miqdori ortib, zararli birikmalar paydo bo'lishi, suvning tarkibida kislorodning kamayib, yuqumli

kasalliklarni tarqatuvchi bakteriyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Qurg'oqchil iqlim sharoitlarida yil davomida turli tarmoqlarni suv bilan ta'minlashda yirik magistral kanallar alohida o'rin tutadi. Toshkent viloyatida ko'pgina kanallar bo'lib, ularidan biri Salor kanalidir. Kanal Qibray tumani hududidagi Bo'zsu kanalidan suv oladi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra Salor kanali suvining kimyoviy tarkibi maishiy va sanoat oqova suvlari ta'sirida sezilarli darajada o'zgargan. «O'zkabel» hissadorlik jamiyati (neft mahsulotlari), «Sharq taronasi» hissadorlik jamiyati (mis, neft mahsulotlari, xrom +6), «Tashselmash» (neft mahsulotlari, mis), 2515-avtokolonna (neft mahsulotlari), O'zbekiston Milliy banki sport kompleksi, Toshkent IEM (kalsiy, magniy), Salor aeratsiya stansiyasi (BPK, azot guruhi, metallar) kabilardan chiqqan oqovalar kanal suvi sifatiga sezilarli ta'sir etmoqda. Toshkent "Suvsoz" DUKT ga qarashli Salor aeratsiya stansiyasining samarasiz ishlashi natijasida Salor kanali Toshkent shahridan pastroqda nitratlar bilan ifloslanganligi REK (ruxsat etilgan konsentratsiya) dan 10,9 marta, ammoniy ioni REK dan 3,8 marta va mis REK dan 4,3 marta yuqori, Yangiyo'l shahridan quyida nitritlar bilan ifloslanish 16,0 martaga ortgan (2008 yillardan 3 marta yuqori). Buning natijasida kanal suvining ifloslanish indeksi II sinf – toza suv (yuqori qism) dan IV sinf – juda iflos suv (quyi qism) gacha o'zgarib turadi.

Toshkent umumiyligi maydonining 22,9 ming ga irrigatsiya tarmog'idagi sug'orish yerkari hisoblanib, suv bilan Bo'zsu kanali suv sistemasini orqali Chirchiq daryosi ta'minlaydi. Yer osti suvlari 5 metr va undan ortiq chuqurlikda, bosimli yer osti suvlari – 100 m dan 155 m chuqurlikda joylashgan. Toshkentning kunlik ichimlik suvi iste'moli 1,5 mln. m³ ga yaqin bo'lib, uning 30% yer osti suvlari va 70% i yer usti suv manbalaridan olinadi. Vodoprovod tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi 99%, kanalizatsiya tarmog'i bilan ta'minlanganlik 90%. Asosiy oqova suvlar tashlovchi manbalar 3 ta Salor, Bo'zsu va Bektemir aeratsiya stansiyasi maishiy tozalash inshoatlari, ya'ni 25 ta korxonadan kelib tushadigan 93,6% oqovalar. 25 ta ob'ektdan faqat 7 tasi tozalangan sanoat oqovalarini tashlaydi, ya'ni barcha olib ketiladigan suv hajmining 2,56% ni tashkil etadi, qolgan 18 tasi shartli toza suv-drenaj suvlarini tashlaydi, issiqlik energetikasidan tashlanayotgan oqovalar umumiyligi suvlarning 4,06% ni tashkil etadi. Salor kanali Toshkent shahri hududidan o'tadi. Bosh inshoatning suv o'tkazish quvvati 20 kub. m³ /sek ga

mo‘ljallangan. Kanal o‘zani egri-bugri va katta qismi obodonlashtirilmagan, uning qирғоqlarida turar-joylar va sanoat korxonalarini binolari qurilgan. So‘nggi yillarda kanal o‘zanining aksariyat qismi ta’mirlanib, ayrim qismlari qayta qurilmoqda. Jumladan, kanalning Toshkent shahrida Pushkin ko‘chasi bilan temir yo‘l bekti ko‘prigigacha bo‘lgan qismi to‘liq qayta ta’mirlandi, Toshkent shahridan oqib o‘tadigan qismi qayta tiklangan (qariyb 10 km), kanal chetlariga beton plitalar yotqizilgan, kanalning ba’zi bir uchastkalarida qирғоq bo‘yi polosalari va istirohat bog‘lari tashkil etildi. Kanalning suv o‘tkazish qobiliyatini oshirish ($50 \text{ m}^3/\text{sek}$ gacha yetkazish), o‘zanini betonlash ishlari olib borilmoqda.

Kanalda 11 ta suv o‘lchagich darvoza bor: 2 tasi kuzatib turish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbekiston Gidrometeorologiya xizmati markaziga qarashli (Toshkentdan yuqorida va quyida), 9 tasi Toshkent shahrida (Tabiatni muhofaza qilish qо‘mitasining tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasiga (TNIDI) qarashli). Toshkent shahar Tabiatni muhofaza qilish qо‘mitasining TNIDI da kuzatishlar yil davomida kvartallar bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunda suv sifati tahlili 20 dan ortiq asosiy gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Salor kanali kimyoviy tarkibining o‘zgarishi va suvning ifloslanishi Toshkent va Yangiyo‘l shaharlaridagi ishlab chiqarish oqovalarining tashlanishi natijasidir. So‘nggi yillarda Salor kanali suv sifati suvning ifloslanish indeksiga muvofiq II–III sinfga (o‘rtacha ifloslangan suv) va alohida uchastkalarda IV sinfga (ifloslangan suv) kiradi. Salor aeratsiya stansiyasi shahardagi suv havzalarini asosiy ifloslantiruvchi manbaidir. Oqova suvlarni tozalash samaradorligi 35-40% ni tashkil etadi. “RAF” OAJ ning ham tozalash samaradorligi past bo‘lib, 33,3% ni tashkil etadi. Kanal suv sifatiga ta’sir etuvchi qolgan manbalarda esa oqova suvlar hech qanday tozalashlarsiz kanalga tashalanadi. Xususan, Toshkent EIM dan oldin va keyin, hayvonot bog‘idan yuqorida va pastda, “Tashqishloqmash” dan yuqorida olib boriladi va bu manbalardan chiqarilayotgan oqovalar hech qanday tozalashlarsiz kanalga tashalanadi. GUPT “Suvsoz” tozalash inshootidan tashlanayotgan oqova suvlar Chirchiq daryosiga, Bo‘zsu va Salor kanaliga kelib tushadi.


Yuqori antropogen ta’sir (GUPT “Suvsoz” tashlamalari hisobi bilan) Mirzo Ulug‘bek suv havzasiga, Mirobod, Yunusobod, Bektemir, Uchtepa, Sergeli rayonlariga, kam miqdorda Olmazor va Chilonzor tumanlariga to‘g‘ri keladi. Chirchiq daryosi, Salor, Qoraqamish, Qorasuv, Bo‘zsu kanallariga antropogen ta’sir juda yuqori.

Salor kanali shahardagi yuqori ifloslangan suv havzalaridan biri. Kanalning suv sifati Toshkent shahriga kirishda va chiqishda hamda 7 ta nazorat nuqtasida (stvorda) kuzatiladi. Salor kanali suvi tarkibida azot ammoniy ($0,99\text{-}1,13 \text{ mg/l}$), azot nitrit ($0,129\text{-}0,17 \text{ mg/l}$), neft mahsulotlari ($0,285\text{-}0,73 \text{ mg/l}$), mis ($0,00235\text{-}0,0034 \text{ mg/l}$), xrom VI ($0,002\text{-}0,0031 \text{ mg/l}$), rux ($0,0116\text{-}0,017 \text{ mg/l}$) REK dan yuqori. Kanalning mineralizatsiyasi bosh stvorda $461,7 \text{ mg/dm}^3$ dan Toshkent shahridan pastdagagi stvorgacha $520,4 \text{ mg/dm}^3$ ga ortgan. 2008 yilda suv havzalaridagi mineral tuzlarning miqdori o‘rtacha $467,7 \text{ mg/dm}^3$ ($0,5 \text{ REK}$), 2009 yilda $447,1 \text{ mg/dm}^3$ ni tashkil etgan. Organik moddalarning miqdori (XPK bo‘yicha) shu davrida $11,27 \text{ mgO/dm}^3$ dan $10,00 \text{ mgO/dm}^3$ gacha bo‘lgan.

Oqova suvlar ta’sirida Toshkent shahridagi nazorat punktida azot ammoniy $0,07$ dan $1,72 \text{ mg/dm}^3$ ($0,2 \text{ REK}$)ga ortgan, azot nitrit 26 martaga va $0,078 \text{ mg/dm}^3$ ($6,4 \text{ REK}$) ni tashkil etgan. Mis $1,3$ martaga ortgan va $4,0 \text{ mg/dm}^3$ ni tashkil etadi. Salor aeratsiya stansiyasining samarasiz faoliyati ifloslanishning asosiy sababchisidir. Yangiyo‘l shahridan pastdagagi stvorda azot ammoniy $1,21 \text{ mg/dm}^3$ ($3,1 \text{ REK}$) gacha, azot nitrit 5,5 martaga – $0,099 \text{ mg/dm}^3$ (REK) ga, mis – $4,5 \text{ mg/dm}^3$ ga ($4,5 \text{ REK}$) ortgan. Mineral tuzlar konsentratsiyasi $416,7 \text{ mg/dm}^3$ dan ($0,4 \text{ REK}$) $518,7 \text{ mg/dm}^3$ gacha ($0,5 \text{ REK}$), organik moddalar (XPK bo‘yicha) $7,65 \text{ mgO/dm}^3$ dan $12,34 \text{ mgO/dm}^3$ gacha ko‘tarilgan.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali



1-rasm. Salor kanalini KBT₅ bo'yicha ifloslanishi


O'tgan yilga taqqoslaganda suv havzasidagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar miqdori o'zgarmagan va fenol 0,001 mg/dm³ ni, neft mahsulotlari 0,01 mg/dm³ (0,2 REK) ni, mis 4,1 mg/dm³ (4,1 REK) ni, xrom IV 0,3 mg/dm³ (0,3 REK) ni, azot ammoniy 0,65 mg/dm³ (1,7 REK) ni tashkil etgan. Azot nitrat konsentratsiyasi 0,082 mg/dm³ dan (4,1 REK) 0,058 mg/dm³ (2,9 REK) gacha kamaygan. Kanalning kislород rejimi shu davrda qoniqarli bo'lib, erigan kislород konsentratsiyasi 10,18 mgO₂ /dm³ darajasida bo'lgan.

Salor kanalining GXSG izomerlari bilan ifloslanishi 0,001-0,007 mg/dm³ (0,1-0,7 REK), DDT va uning metobalitlari kuzatilmagan. Suv sifati ko'rsatkichi bo'lgan SII miqdori Toshkent shahridan yuqorida III sinfdan II sinfga yaxshilandi va qolgan stvorlarda esa o'zgarmagan ya'ni III sinf o'rtacha ifloslangan va IV ifloslangan sinfniga tashkil etgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, yer usti suvlarini organik moddalar bilan ifloslanishiga sanoat oqova suvlari va maishiy oqova suvlar sabab bo'ladi. Salor kanalining uch qismida suvning organik moddalar bilan ifloslanganligi KKT(kislородга bo'lgan kimyoviy talab) va KBT5 (kislородга bo'lgan biologik talab) bo'yicha tahlil qilindi (1, 2 - rasmlar).

Tahlil natijalariga ko'ra, KBT bo'yicha organik ifloslanish barcha nuqtalarda may oyida yuqori bo'lganligi aniqlandi, lekin uning miqdori REK dan past bo'lgan. KKT bo'yicha organik ifloslanish esa barcha nuqtalarda nisbatan yuqori ekanligi kuzatilgan, ayniqsa 2515-avtoparkdan so'ng organik ifloslanish iyul va may oylarida REKdan yuqori bo'lgan. Buning sababi, shu korxona oqova suvlari bilan chiqayotgan organik moddalar, xususan neft mahsulotlari deyish mumkin. 1-rasm. Salor kanalini KBT5 bo'yicha ifloslanishi 2-rasm. Salor kanalini KKT bo'yicha ifloslanishi

ADABIYOTLAR:

- Иrrigacija Uzbekistana, Tom IV. T., «Fan», 1981, 156-157-c.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy manbalardan foydalanish to'g'risida Milliy ma'ruba (1988-2007 yillar bo'yicha retrospektiv tahlil). T., 2008. 54-55 b.
- Atrof muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejisi. T., 1998. 25-b.
- Проблемы питьевого водоснабжения и экологии. Т., «Университет» 2002., 59-67-стр.
- Rashidov J. Suv resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish yo'llari. TIMI maqolalar to'plami. 2008. 188-189 b.



2-rasm. Salor kanalini KKT bo'yicha ifloslanishi